

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI**



“TASDIQLAYMAN”
Qo‘qon davlat universiteti
rektori D.Sh. Xodjaeva
30- iyun 2025-yil

**O‘ZBEK DIALEKTOLOGIYASI
FANINING O‘QUV DASTURI**

Bilim sohasi:	100000 – Ta’lim
Ta’lim sohasi:	110000 – Ta’lim
Ta’lim yo‘nalishi:	60110700 – O‘zbek tili va adabiyoti

Fan/modul kodi O'D1405		O'quv yili 2025/2026	Semestr 4	Kreditlar 5	
Fan/modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)		Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	O'zbek dialektologiyasi	60		60	150
2.	I. Fanning mazmuni. Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarni o'zbek tilining sheva va lahjalariga xos fonetik, leksik va grammatik xususiyatlari bilan tanishtirish, ularda dialektologik tadqiqot o'tkazish malakasini hosil qilishdir. Bu fanni bilish har bir filologda mustaqil ravishda xalq shevalarini o'rganish, to'plangan materiallarni tahlil eta olish ko'nikmasini shakllantiradi. Talabalar dialektologik bilimlarni o'zlashtirishi natijasida o'zbek tili shevalari xususiyatlarini, tarqalish hududlarini, mavjud tadqiqotlar mazmunini bilishi, shevaga oid materiallarni o'rganishi, to'plashi, tahlil qila olishi talab etiladi. Talabalarga o'zbek shevalarining eng muhim xususiyatlari, ularning murakkab tarkibi, leksik, fonetik va grammatik tabiati haqida batafsil tushuncha va ma'lumot berish zarur sharoitlarda ulardan amalda foydalanish malakasini shakllantirishdan iborat. Fanning asosiy vazifalari: – talabalarga sheva, dialekt, lahja tushunchalarining ma'nosini tushuntirish; – o'zbek shevalarining eng muhim fonetik, grammatik va leksik xususiyatlari haqida ma'lumot berish; – dialektologik terminlarning ishlatilish ko'lami, transkripsiyadan foydalanish va ularni ham o'quv, ham ilmiy izlanishlar jarayonida qo'llash ko'nikmasini shakllantirish; – sheva faktlarini ishonchli va izchil to'plash, saralash va yozib olish ko'nikmasini hosil qilish; – o'zbek shevalarini hududiy xaritalashtirish; – sheva lug'atlarini tuzish; – o'zbek shevashunosligining nazariy-metodologik muammolari bilan shug'ullanish kompetensiyasini hosil qilish va rivojlantirish. Fanning asosiy manbalari: “Ta'lim to'g'risida”gi Qonun hamda “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”dan, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF–4797-sonli «Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida»gi Farmoni, 2019-yil 21-oktyabrdagi «O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi» PF-5850-sonli Farmonida ko'zda tutilgan “O'zbek tili qadimiy va boy tarixga ega bo'lib, uning shakllanishi miloddan oldingi va miloddan keyingi dastlabki asrlarda mintaqamiz hududida yashagan baqtriylar, so'g'dlar, xorazmiylar va boshqa elat va millatlar o'z ta'sirini ko'rsatgani haqida mavjud ilmiy manbalar dalolat				

beradi” degan fikrlaridan kelib chiqqan holda o‘zbek tili dialektologiyasining predmeti, vazifalarini yoritish, fan doirasida o‘rganiladigan asosiy masalalarning mazmun mundarijasini belgilash, o‘zbek shevalarining eng muhim o‘ziga xos o‘xshash va noo‘xshash xususiyatlari borasida tasavvur hosil qilish, shevashunoslik masalalariga bag‘ishlangan ma‘ruzalar o‘qish dolzarbligini saqlab qolmoqda

Fanning yetakchi TOP-300 xalqaro universitetlari dasturi asosida tayyorlanganligi:

O‘zbek dialektologiyasi fani dasturi dunyoning yetakchi oliy ta’lim muassasalaridan biri bo‘lgan **Farobiy** universiteti (Qozog‘iston)ning **Tilshunoslik** fanining o‘quv dasturi asosida takomillashtirilgan. Mazkur universitet **QS World University Rankings 2024 bo‘yicha 32-o‘rinni egallagan bo‘lib**, dialektologiya sohasi bo‘yicha yuqori malakali ilmiy-uslubiy bazaga ega.

Dasturda quyidagi asosiy jihatlar inobatga olingan:

Nazariy va amaliy yondashuv uyg‘unligi – Qozog‘iston universitetining **Typkitany** kursida til nazariyasi bilan bir qatorda, Dialektologiya va tadqiqot usullarini tartibga solish amaliyoti ham keng yoritiladi.

Xalqaro standartlarga muvofiqlik – dastur xalqaro **Turkiy** tillarning dialektologik atlaslari (**MOOC**) tizimida o‘rganish prinsiplari asosida boyitilgan.

Tanqidiy fikrlash va tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirish – talabalar huquqiy holatlarni mustaqil tahlil qilish, dalillarga tayangan holda xulosa chiqarishni o‘rganadilar.

II. Asosiy nazariy qism (ma‘ruza mashg‘ulotlari)

II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

I – MODUL. O‘zbek dialektologiyasi fani kursi, transkripsiya va grammatikasining nazariy asoslari

1-mavzu. Kirish. Dialektologiya va tadqiqot usullari.

“O‘zbek dialektologiyasi” fanining “O‘zbek tili va adabiyoti” yo‘nalishi bo‘yicha pedagoglar tayyorlashdagi ahamiyati. “O‘zbek dialektologiyasi” kursining turlari, O‘zbek shevalari milliy tilning quyi bosqichi, o‘zbek tilining asosi ekanligi. Tilshunoslikda sheva, dialekt, lahja terminlari definitsiyasi. O‘zbek tilining dialektal tarkibi va ular murakkabligining ijtimoiy va tarixiy interpretatsiyasi. Turkiy xalqlar dialektologiyasining adabiy til, til tarixi, xalq tarixi, geografiya fanlari bilan munosabati va ularning o‘rganish metodlari.

2-mavzu. Transkripsiya

Transkripsiya turlari. Fonetik va fonologik transkripsiya. Xalqaro transkripsiya. Transliteratsiya. Milliy transkripsiya. Turkiy tillar va lahjalarni o‘rganishda qo‘llaniladigan transkripsion belgilar. O‘zbek shevalarini o‘rganishda qo‘llaniladigan transkripsiyalar. Lotin alifbosiga asoslangan yangi o‘zbek yozuvidagi transkripsiyaga xos xususiyatlar.

3-mavzu. O‘zbek shevalari fonetikasi. Fonetik qonuniyatlar.

O‘zbek shevalarining fonetik xususiyatlari. Shevalar vokalizmi va konsonantizmi. O‘zbek shevalaridagi va o‘zbek adabiy tilidagi unlilar munosabati. O‘zbek shevalaridagi undoshlar tasnifining o‘ziga xos jihatlari.

Singarmonizm qonuni va uning turlari. Umluat. O'zbek shevalaridagi nutq tovushlarining kombinator va pozitsion o'zgarishlari va turlari. Birlamchi, ikkilamchi cho'ziqlik va emfatik (ul'tra) cho'ziqlik. Monoftong va diftong. Tovush mosligi. Fonetik jarayonlar.

4-mavzu. O'zbek shevalari leksikasi

O'zbek shevalari leksikasi tushunchasiga bo'lgan qarashlar. Shevalarning tarixiy jihatdan leksik qatlamlari. Shevalarning o'z so'zlari. Shevalararo leksik moslik (variant) masalasi. Sheva so'zlari va jargonlar.

5-mavzu. O'zbek shevalari leksikasi va leksikografiyasi

O'zbek shevalari leksikasi tushunchasiga bo'lgan qarashlar. Shevalarning tarixiy jihatdan leksik qatlamlari. Shevalarning o'z so'zlari. Shevalararo leksik moslik (variant) masalasi. Sheva so'zlari va jargonlar.

6-mavzu. O'zbek shevalari morfologiyasi (Otga xos xususiyatlar)

O'zbek shevalari leksikasi tushunchasiga bo'lgan qarashlar. Shevalarning tarixiy jihatdan leksik qatlamlari. Shevalarning o'z so'zlari. Shevalararo leksik moslik (variant) masalasi. Sheva lug'atlarini o'rganish.

7-mavzu. O'zbek shevalari morfologiyasi (Fe'lga xos xususiyatlar)

O'zbek shevalarining morfologik xususiyatlari. O'zbek adabiy tilidagi va o'zbek shevalaridagi turlanishning farqi. Grammatik son, kelishik, egalik, shaxs-son, mayl, zamon kategoriyalariga xos shakllar, fe'lning funksional shakllarining shevalardagi o'ziga xosliklari.

8-mavzu. O'zbek shevalarida so'z yasalishi va sintaksis

Shevalarda so'z birikmalari, izofali konstruksiyalar, to'liq va to'liqsiz gaplar, so'z-gaplarning qo'llanish xususiyatlari.

II – MODUL. Shevalarning dialektal tizimi va areal o'rganish masalalari

9-mavzu. Qarluq-chigil-uyg'ur lahjasining muhim xususiyatlari

Qarluq-chigil-uyg'ur lahjasiga birlashuvchi dialekt va shevalarning fonetik, leksik, grammatik xususiyatlari.

10-mavzu. Qipchoq lahjasining muhim xususiyatlari

Qipchoq lahjasiga birlashuvchi dialekt va shevalarning fonetik, leksik, grammatik xususiyatlari.

11-mavzu. O'g'uz lahjasining muhim xususiyatlari

O'g'uz lahjasiga birlashuvchi dialekt va shevalarning fonetik, leksik, grammatik xususiyatlari.

12-mavzu. O'zbek shevalari tasnifi.

I.I.Zarubin, K.K.Yudaxin, G'ozi Olim Yunusov, A.K.Borovkov, E.D.Polivanov tasniflari. Ularning yutuq va kamchiliklari.

13-mavzu. O'zbek shevalari tasnifi.

V.V.Reshetov tasnifi: qipchoq lahjasi, o'g'uz lahjasi, qarluq -chigil-uyg'ur lahjasi.

14-mavzu. Turkiy tillarning dialektologik atlaslari

Areal lingvistikaning til va shevalarni o'rganish usullari. Izoglossa tushunchasi. Dialektal xarita va atlas, uning yaratilish tarixi va ahamiyati. Turkiy

xalqlar va O'zbekiston Respublikasida areal lingvistikaning o'rganilishi va rivojlantirilishi.

15-mavzu. Adabiy til va dialekt munosabati

Sheva, milliy til va adabiy til. Badiiy asarlardagi dialektizmlar va ularning turlari. O'zbek dialektologiyasi fanining til va adabiyot o'qituvchilari uchun ahamiyati. Dialektal xato tushunchasi, ularni bartaraf etish yo'llari. Dialektizmlarning adabiy tilga singish jarayoni. Avtonomiya va geteronomiya. Bir xalq tilining turli davlat hududlarida alohida – alohida mustaqil rivojlanishi, yozuvdagi farqlar, adabiy me'yorlarning o'ziga xosligi.

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Sheva, dialekt, lahjaning xususiyatlari, ularni o'rganish metodlari.
2. Transkripsiya turlari. Fonetik va fonologik transkripsiya.
3. Xalqaro transkripsiya. Transliteratsiya. Milliy transkripsiya.
4. Turkiy tillar va lahjalarni o'rganishda qo'llaniladigan transkripsion belgilar.
5. O'zbek shevalarini o'rganishda qo'llaniladigan transkripsiyalar.
6. Lotin alifbosiga asoslangan yangi o'zbek yozuvdagi transkripsiyaga xos xususiyatlar.
7. Unlilar transkripsiyasi.
8. Undoshlar transkripsiyasi. Diakritik belgilar.
9. Dakritik belgilar
10. Shevaga oid matnlarni transkripsiyada o'qish va yozish.
11. Transkripsiyada yozilgan matnlatni o'qish, yozish.
12. Sheva matnlarining fonetik jihatdan o'rganish.
13. O'zbek shevalarining fonetik xususiyatlari.
14. Shevalar vokalizmi va konsonantizmi.
15. Singarmonizm qonuni va uning turlari.
16. Umluat.
17. O'zbek shevalaridagi nutq tovushlarining kombinator va pozitsion o'zgarishlari va turlari.
18. Birlamchi, ikkilamchi cho'ziqlik va emfatik (ul'tra) cho'ziqlik.
19. Monoftong va diftong. Tovush mosligi. Fonetik jarayonlar.
20. Shevalarda ko'plik va egalik shakllari.
21. Shevalarda kelishik shakllari.
22. Fe'ning vazifadosh shakllari tahlili.
23. Sheva matnlarining leksik xususiyatlarini tahlil qilish.
24. O'zbek shevalarining lug'at tarkibi. Matnlar o'qish.
25. Shevaga xos so'zlarni mavzuviy guruhlariga bo'lib o'rganish.
26. Qarluq lahjasining muhim xususiyatlari.
27. Qipchoq lahjasining muhim xususiyatlari.
28. O'g'uz lahjasining muhim xususiyatlari.
29. Areal lingvistika
30. Badiiy asarlarda dialektizmlar va ularning turlari.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan mustaqil ishlar quyidagi turlarda amalga oshirilishi tavsiya etiladi:

Fanning ayrim mavzularini o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'rganish, o'quv manbalari bilan ishlash;

Amaliyot mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rib kelish;

Ma'lum mavzu bo'yicha referat tayyorlash;

Amaliyotdagi mavjud muammoning echimini topish, test, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash;

Ilmiy maqola, tezislar va ma'ruzalar tayyorlash.

Muayyan mavzularga taqdimotlar tayyorlash.

Uy vazifalarini bajarish. Masofaviy (distant) ta'lim.

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. O'zbek shevalarining o'rganilish tarixi.
2. Professor V.V.Reshetov tasnifi.
3. Abdullayev F. O'zbek tilining Xorazm shevalari. (T: 1960. ilmiy asarni o'qish va tahlil qilish).
4. Transkripsiyani o'zlashtirish va sheva vakillaridan audio materiallar yozib olish.
5. Shevalardan olingan audio materiallarning transkripsiya matnlarini yozish.
6. Rahimov S. O'zbek tili Surxondaryo shevalari. (T: 1985. ilmiy asarni o'qish va tahlil qilish).
7. Nazarov N. Laqaylar: dialektologiya va frazeologiya (T: 2010. ilmiy asarini o'qish va tahlil qilish).
8. To'ychiboyev B., Hasanov B., O'zbek dialektologiyasi. (T: 2004) darslikni o'qish va tahlil qilish.
9. O'zbek shevalari leksikasi. (T:1991). Ilmiy qo'llanmani o'qish va tahlil qilish.
10. O'zbek shevalari morfologiyasi. (T: 1984.) o'qish va tahlil qilish.
11. O'zbek xalq shevalari lug'ati. (T: 1971) Lug'atni o'qish va tahlil qilish.
12. Ma'lum sheva topografiyasi va fonetik tabiati (talaba o'zi yashayotgan hudud)ni o'rganish.
13. Ma'lum sheva leksik xususiyatlari (talaba o'zi yashayotgan hudud)ni o'rganish.
14. Ma'lum sheva morfologik xususiyatlarini (talaba o'zi yashayotgan hudud) o'rganish.
15. Ma'lum sheva so'zlarini (talaba o'zi yashayotgan hudud) to'plash.
16. Ma'lum sheva lug'ati (talaba o'zi yashayotgan hudud) ustida ishlash.
17. Areal lingvistika va unga oid tushunchlar tahlili.
18. Darveshov I. Areal lingvistika: janubiy-g'arbiy Namangan shevalarining fonetik-fonologik xususiyatlari. Toshkent: Navro'z, 2019. Monografiya tahlili.
19. Nasriy asarlarda qo'llangan dialektizm turlarini (fonetik, leksik, morfologik dialektizmlar) aniqlash va izohlash.
20. Nazmiy asarlarda qo'llangan dialektizm turlarini (fonetik, leksik, morfologik dialektizmlar) aniqlash va izohlash.

3.	V. Ta’lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar) Talaba bilishi kerak: • Sheva, dialekt, lahja tushunchalari haqida bilimga ega bo‘lishlari, o‘zbek shevalari o‘zbek tili tarixi va boshqa turkiy tillarni o‘rganishda boy manba ekanligini farqlay bilishlari lozim; • o‘zbek shevalarining eng muhim fonetik, grammatik, leksik xususiyatlari, transkripsion belgilar tizimi haqida bilimga ega bo‘lishlari kerak; • shevalarni turli metodlar, jumladan, tavsifiy, qiyosiy-tarixiy, lingvistik geografiya metodlarini bilishi va ulardan foydalana olishi kerak; • Transkripsiya prinsiplarini o‘zlashtirib olish va sheva vakillari nutqidagi dialektal xususiyatlarni transkripsiyada yozish va o‘qiy olishi, ularni amalda qo‘llay bilish ko‘nikmalari va tasavvuriga ega bo‘lishi talab etiladi.
	VII. Mavzu yuzasidan savollar: 1. “O‘zbek dialektologiya”si fanining maqsad va vazifalari? 2. O‘zbek shevalari morfologiyasi qanday? 3. Lingvistik geografiya va lingvistik xarita nima? 4. Shevalarda grammatik son kategoriyasi va tuslovchi affiksalar. 5. O‘zbek dialektologiyasining boshqa fanlar bilan aloqasi qanday? 6. Transkripsiya va transliteratsiya ning farqi? 8.Xalq shevalari leksikasi haqida fikringiz. 9. O‘zbek shevalarining sintaksisi. 10. O‘zbek shevalarining dialektal bo‘linishi.(Professor I.I.Zarubin va K.K. Yudaxinlar tasnifi). 11. Qorluq-chigil-uyg‘ur lahjasining fonetik xususiyatlari. 12. O‘zbek shevalarining dialektal bo‘linishi. (Prof. E.D.Polivanov, G‘ozi Olim Yunusov va A.K.Borovkovlar tasnifi). 13. Qorluq-chigil-uyg‘ur lahjasining morfologik xususiyatlari. 14. O‘zbek shevalarining dialektal bo‘linishi. (Prof. V.V.Reshetev tasnifi va ushbu tasnifning afzalliklari). 15. O‘zbek xalq shevalari fonetikasi.Unli tovushlvr haqida. 16. Lingvistik geografiya . 17. Dialektlarning o‘rganish usullari. 18. Qipchoq lahjasining morfologik xususiyatlari. 19. Xalq shevalaridagi fonetik jarayonlar. 20. Qipchoq lahjasining fonetik xususiyatlari. 21. Qipchoq lahjasining leksik xususiyatlari 22. O‘g‘uz lahjasi leksikasi. 27. O‘g‘uz lahjasi fonetikasi. 28. Adabiy til va dialekt munosabati.
4.	VI. Ta’lim texnologiyalari va metodlari: • ma’ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • amaliy mashg‘ulotlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish;

	• individual loyihalar; • jamoa bo‘lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5.	VII. Kreditlarni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha yozma ishni topshirish.
6.	Asosiy adabiyotlar: 1. Ashirboyev S.O‘zbek dialektologiyasi. – T.:Nodirabegim, 2021. 2. Yuldasheva Z. O‘zbek dialektologiyasi. – Nukuz: “Ilim nuri”, 2024. 3. Saidov Y. O‘bek dialektologiyasi. -Buxoro: „Durdona“, 2022. 4. Turdibekov M. O‘zbek dialektologiyasi. -T. “Universitet” 2021. 5. Usmonova S. O‘zbek dialektologiyasi (amaliy mashg‘ulotlar uchun) o‘quv qo‘llanma. Qo‘qon: “ART PRESS”, 2025. Qo‘shimcha adabiyotlar 1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF -58-50 sonli “O‘zbek tilini davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chor-tadbirlari to‘g‘risi da” gi Farmoni. 2.Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni// Xalq so‘zi, 2016-yil 15-may. 3. Abdullayev F.A. O‘zbek tilining tilining o‘g‘uz lahjasi. – Toshkent: Fan. 1978. 4. Begaliyev M.Q. O‘zbek tilining Qorabuloq shevasi leksikasi. –Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2017. 5. Darveshov I. Areal lingvistika: janubiy-g‘arbiy Namangan shevalarining fonetik-fonologik xususiyatlari. — Toshkent: Navro‘z, 2019. 6. Jo‘rayev B. O‘zbek adabiy tili va dialektlari. – Toshkent, 1963. 7. Ishayev A. O‘zbek dialektal leksikografiyasi. – Toshkent: Fan, 1990. 8. Rajabov N. O‘zbek shevashunosligi. –Toshkent: O‘qituvchi, 1996. 9. Rahimov S. Surxoddaryo o‘zbek shevalari lug‘ati. Denov, 1993. 10. Reshetov V.V., Shoabdurahmonov Sh. O‘zbek dialektologiyasi. –Toshkent: O‘qituvchi, 1978. 11. Reshetov V.V. O‘zbek shevalarining klassifikatsiyasi // O‘TA, 1966, № 1. 12. To‘ychiboyev B., Hasanov B., O‘zbek dialektologiyasi. Toshkent, 2004 13. Shermatov A. Qashqadaryo oblastidagi o‘zbek xalq shevalari atlas. – Toshkent: Fan, 1979. 14. Shoimova N. Qashqadaryo o‘zbek qipchoq shevalari leksikasi. – Qarshi: Nasaf, 2000. 15. Murodova N. O‘zbek tili Navoiy viloyati shevalarining areal tadqiqi. – Toshkent: Fan, 2006. 16. Murodova N., Rahmonov N., O‘zbek tili Navoiy viloyati shevalarining lingvoareal talqini (fonetik va morfologik materiallar asosida). – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017. 17. Nafasov T. Qashqadaryo o‘zbek xalq so‘zlari. -Toshkent Muharrir, 2011.

	18. Nosirov Sh. O'zbek tilining Qo'qon shevasi. –Toshkent, 1980. 19. O'zbek shevalari morfologiyasi. – Toshkent, 1984. 20. O'zbek shevalari leksikasi. – Toshkent: Fan, 1991. 21. O'zbek xalq shevalari lug'ati. – Toshkent: Fan, 1971. https://farabi.university/programs/2225 https://ocw.mit.edu/courses/24-903-language-and-its-structure Axborot manbalari https://www.researchgate.net/publication. http://unibook.upjs.sk c:/itools/cup-nev https://bigenc.ru https://studfile.net
7.	Fan dasturi Qo'qon davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet kengashining 2025-yil 30-iyundagi 1-sonli qarori bilan tasdiqlangan.
8.	Fan/modul uchun mas'ullar va dastur muallifi: S.Usmonova – Qo'qon DU, o'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsent v/b (PhD)
9.	Taqrizchilar: D.Jamoliddinova- Qo'qon DU filologiya fakulteti dekani, filologiya fanlari doktori, professor I.Madrahimov- Qo'qon DU O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, filologiya fanlari doktori.